

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi davlat va huquq asoslari fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me’yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

1. Davlat va huquq
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari
3. Xalqaro huquq asoslari
4. Ma’muriy huquq asoslari
5. Fuqarolik huquqi asoslari
6. Mehnat huquq asoslari
7. Oila huquqi asoslari

8. Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi

9. Moliya huquqi asoslari

10. Ekologiya huquqi asoslari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Davlat va huquq	Shaxs. Jamiyat va davlat. Huquq. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining tashkil etilishi. Fuqarolik jamiyati. Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik. Voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari.	Shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini aniqlay oladi, davlat va huquq bilan bog'liq ma'lumotlarni to'g'ri ajratadi, axloq va huquq, huquq manbalari, huquq normasi va huquq tarmoqlarini farqlaydi. Huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik turlarini, shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarini topadi. Hayotiy vaziyatlarda qoidalarini to'g'ri qo'llab, taqqoslaydi, tahlil qiladi va asoslangan xulosa chiqaradi. Bunda faktni eslash, terminni aniqlash, qoidani amalda qo'llash, xatoni topish, taqqoslash, sabab-oqibatni ko'rsatish hamda mustaqil fikr va dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlaydi.	31%	13
2	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	Konstitutsiya va huquqiy davlat.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarini aniqlaydi. Konstitutsiya va huquqiy davlatning asosiy belgilarini topadi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini shuningdek, fuqarolik jamiyati va davlat hokimiyati tizimini taqqoslaydi, tahlil qiladi. Turli xil vaziyatlarda Konstitutsiya va huquq normalaridan foydalanadi.	17%	7
3	Xalqaro huquq asoslari	O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat.	Xalqaro huquq normalari bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini aniqlaydi. O'zbekistonda mahalliy aholi va chet el fuqarolarining huquqlarini farqlaydi. Turli xil vaziyatlarda huquq normalarini harakatga keltiradi hamda tahlil qiladi.	7%	3
4	Ma'muriy huquq asoslari	Ma'muriy huquq. Ma'muriy javobgarlik.	Ma'muriy huquqiy munosabatlar va javobgarlik asoslarini aniqlaydi. Ma'muriy jazo va uning turlarini ajrata oladi. Kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarda qonun normalarini to'g'ri qo'llaydi, hamda tahlil qilib xulosa chiqaradi.	6%	2
5	Fuqarolik huquqi asoslari	Fuqarolik - huquqiy munosabatlar.	Fuqarolik huquqiy munosabatlarning mohiyatini va xususiyatlarini aniqlaydi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga	7%	3

			solinadigan munosabatlarni topadi. Shuningdek, kundalik hayotda yuzaga keladigan turli vaziyatlarda fuqarolik qonunchiligi normalarini to'g'ri qo'llab, tahlil qiladi. Faktlarni eslash, atamalarini aniqlash, qoidalarni amalda qo'llash, xatoni topish, taqqoslash, sabab-oqibatini topish hamda mustaqil fikr va dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlaydi.		
6	Mehnat huquqi asoslari	Mehnatga oid huquqiy munosabatlar.	Mehnatga oid huquqiy munosabatlarni va ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, farqlash, taqqoslash shuningdek, ish beruvchi va xodim o'rtasida yuzaga keladigan vaziyatlarda mehnat qonunchiligi normalarini to'g'ri qo'llab, tahlil qiladi.	6%	2
7	Oila huquqi asoslari	Oilaviy - huquqiy munosabatlar.	Oilaviy huquqiy munosabatlarining mohiyati va ahamiyatini aniqlaydi, ularni boshqa huquqiy munosabatlar bilan taqqoslab, farqlaydi. Oilaviy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan turli hayotiy vaziyatlarda oila qonunchiligi normalarini to'g'ri qo'llab, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.	6%	2
8	Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi	Jinoyat va jinoyat protsessual huquqiy munosabatlar.	Jinoyat huquqi va jinoyat protsessual huquqining asosiy tushunchalarini farqlay oladi. Jinoyat turlari, tarkibi va qonunda belgilangan javobgarlik turlarini aniqlaydi hamda ularni tahlil qilib, turli hayotiy vaziyatlarda qonun normalarini amalda qo'llay oladi. Shu bilan birga, faktlarni eslash, atamalarini aniqlash, qoidalarni amalda qo'llash, xatolarni topish, taqqoslash, sabab-oqibatni aniqlash va mustaqil fikr hamda dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlaydi.	7%	3
9	Moliya huquqi asoslari	Moliyaviy huquqiy munosabatlar.	Moliyaviy huquqiy munosabatlarining mohiyatini aniqlaydi. Ularning asosiy jihatlarini boshqa huquqiy munosabatlardan ajratadi.	6%	2
10	Ekologiya huquqi asoslari	Ekologiya huquqi. Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik turlari.	Ekologiya huquqining mohiyati va tamoyillarini biladi, uni boshqa huquqiy sohalaridan farqlay oladi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarda qonunchilik normalarini harakatga keltiradi.	7%	3
Jami:				100%	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	50%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	42%
3.	Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, xulosalash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish	8%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi Lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi Lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi Lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni Lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik to‘g‘risida”gi qonuni Lex.uz.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchi huquqlari to‘g‘risida”gi qonun Lex.uz. 26.04.1996.
13. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2024.
14. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari 8-sinf darsligi. O.Karimova, N.Ismatova, Sh.Sariqov, O.Amanova. “Huquq va jamiyat”, Toshkent- 2019.
15. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2024.
16. Konstitutsiyaviy huquq asoslari 9-sinf darsligi. G.M.Tansikbayeva, V.A.Kostetskiy. “Sharq”, Toshkent-2019.
17. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. X.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2023.
18. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. V.A.Kostetskiy. “Yangiyo‘l Poligraf Servis”, Toshkent-2017.
19. Davlat va huquq 11-sinf darsligi. N.Ismatova, O.Karimova. “Yangiyo‘l Poligraf Servis”, Toshkent-2018.

20. Davlat va huquq nazariyasi darslik. Sh.A.Saydullayev. “Yuridik adabiyotlar publish”, Toshkent-2021.

21. Davlat va huquq nazariyasi darslik. X.T.Odilqoriyev. “Adolat”, Toshkent- 2018.

Izoh: *Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- Lex.uz. sayti)*